

“Kelarchi buvo” ziyyaratgohida shukronalik tadbiri tashkil etildi
Qo’shtepa tumanidagi “Do’rmon” mahallasi hududida joylashgan “Kelarchi buvo”
ziyyaratgohida tumandagi sektor rahbarlari, qishloq xo’jaligi sohasiga daxldor
tashkilotlar, mehnat faxriylari va nuroniyalar jam bo’lishdi.

Ziyyaratgohda jonliq so’yilib, shukronalik tadbiri tashkil etildi. Bir piyola choy ustida
tashkil etilgan tadbirda nuroniyalar tomonidan bu yilgi paxta hosili barakali bo’lib, rejalar
ortig’i bilan bajarilishini hamda yurtimizda mo’l-ko’chilik, to’kin-sochinlik barqaror
bo’lishligini tilab duo qilindi.





2024-10-08 08:06:09